

ILMIY BILISH JARAYONIDA MANTIQ VA INTUITSIYANING O'ZARO BOG'LQLIGI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15298348>

Abdunosirova Halima Erdtlayevna

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti,

“Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat” kafekdrasi, katta o‘qituvchi

ANNOTATSIYA

Maqolada ilmiy bilish jarayonida mantiq va intuitsiyaning o‘zaro bog‘liqligi va uning o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslاب berildi. Ilmiy bilishda mantiqiy metodologik asoslari bilan ijtimoiy madaniy sharoitini ham nazarga olinishi zarur. Bu fan qadriyatlarda o‘z aksini topadi. Fanni ilmiy bilish faoliyatining boshqa shakllaridan farqlash imkonini beruvchi boshqa muhim xususiyatlarni yuqorida zikr etilgan belgilarga bog‘liq va ular bilan belgilanuvchi xususiyatlar sifatida tavsiflash mumkin. Ilmiy bilish nafaqat subyektning obyektga nisbatan, balki o‘ziga, o‘z faoliyatiga nisbatan ham ongli munosabatini, ya’ni tadqiqotchilik faoliyatining shartlari, me’yorlari va metodlarini bilishi, an’analarni hisobga olishi va hokazolarni nazarda tutadi.

Kalit so‘zlar: ilmiy bilish, subyekt, obyekt, bilish jarayoni, hirs, zavq, ong, ongsizlik, ratsionallik, shubha, mexanizmlar.

АННОТАЦИЯ

В статье научно обоснована взаимосвязь логики и интуиции в процессе научного познания и раскрыты её специфические особенности. При исследовании важно учитывать не только логико-методологические основания науки, но и социально-культурные условия, в которых она развивается, поскольку они отражаются в ценностных ориентирах дисциплины. Иные существенные черты, позволяющие отличить научное познание от других форм интеллектуальной деятельности, связаны с упомянутыми признаками и обусловлены ими. Научное познание предполагает осознанное отношение исследователя не только к объекту, но и к собственной деятельности: знание условий, норм и методов исследования, учёт традиций и т. д.

Ключевые слова: научное познание, субъект, объект, процесс познания, стремление, наслаждение, сознание, бессознательное, рациональность, сомнение, механизмы.

ABSTRACT

The article scientifically substantiates the interrelation between logic and intuition in the process of scientific cognition and highlights its distinctive features. It argues that, alongside logical-methodological foundations, the socio-cultural context of science must also be taken into account, since it is reflected in the values embedded in any discipline. Additional distinguishing properties that set scientific cognition apart from other forms of intellectual activity are tied to—and defined by—the characteristics mentioned above. Scientific inquiry implies a conscious stance not only toward the object under study but also toward the researcher's own activity: awareness of the conditions, norms, and methods of investigation, respect for established traditions, and so forth.

Keywords: scientific cognition, subject, object, cognitive process, desire, delight, consciousness, unconsciousness, rationality, doubt, mechanisms.

KIRISH.

Ilmiy bilish jarayonida mantiq va intuitsiyaning o'zaro bog'liqligi shubhaga joy qoldirmasdi. XX asr fanida ularning o'zaro bog'liqligi yanada chuqurroq tahlil qilindi va shu asosda "mantiqiy hulosalarni intuitiv asosi aniqlandi" [1, 31-b.]. Mazkur omillarni o'zaro bog'liqligi va bilish jarayoni asosini mazkur yondoshuv tashkil etishi bilan boshqa determinantlari ham mavjud.

- **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Ijodiy izlanishdagi insonning zavqi ong va ongsizlikning yuqori energiya manbalarini eslatadi. Chunki ular inson ongli faoliyatining, uning muloqoti, bilishi, ijodining kuchli motivlarini o'zida mujassamlashtiradi [2, 487 b.]. Zavq mexanizmlari odatda ong tomonidan qiyinroq anglanadi. Zero, ijodiy faoliyatda tug'ilgan zavq o'z kelib chiqishining ongsizlik mexanizmlarining sirli tabiatini saqlab qoladi. Zavq – shahvatlarda (hirs) kognitiv asos ikkinchi planga o'tadi va energetika etakchi rol o'ynaydi, ya'ni u hirs, zavq (u-hirs, zavq) ong va ratsionallikni «qamrab» oladi. O'z hirsni, zavqiga asir bo'lgan odam o'z – o'zi bilan cheklanib qoladi, o'z ichki dunyosiga berilib ketadi. Shuning uchun zavq nafaqat tashqaridan intilish bilan bog'langan, balki u bostirilishi, so'ndirilishi ham mumkin. Yoki inson ongsizligining eng chuqur xilvatxonalariga «berkinishi» ham mumkin.

Agar o'zining ratsional fikrlarini inson emotsiyalari bilan boshqarsa, ularning ta'sirini tekislasa, aksincha, ongning o'y, shubha, ishonch, umidda shavq belgilovchi rol o'ynashi mumkin. Hirs aqli odamni ham qo'zg'atib yuboradi va u shubhaga tushishi mumkin. Shubha o'zining boshlang'ich etilish bosqichlarida ongning emotsiyal strukturalari vositalarida amalga oshadi [3, 368 b.].

Ijodiy izlanish jarayonida umid fenomeni ongning shunday holatiki, u kelajak obrazi sifatida gavdalanadi [4, 416 b.]. Umid ishonch bilan mustahkam bog‘langan. Umid ongga ishonch bilan birga kiradi. Umid ratsional xarakterga ega, chunki kelajak obrazini yaratishda unda kognitiv omillar ham ishtirok etadi. To‘g‘ri, umid obrazi bo‘lgan bunday kelajak obrazi ancha xiralashgan bo‘ladi. Agar umid obrazining shakllanishida bilimlar kam bo‘lsa, bu obraz juda mo‘rt bo‘ladi va hayotning real qiyinchiliklariga urilganda choklari so‘kilib ketadi. Agar umid obrazi ishonchga va uning emotsiyal – qadriyatli resurslariga tayansa, u insonning yashashiga va hatto eng fojiali hayotiy vaziyatlardan ham chiqib ketishiga yordam beradi.

Ko‘pgina adabiyotlarda ilmiy bilishning harakat yo‘li faqatgina to‘g‘ri chiziqdan iborat emas, balki kesimlarida yanglishish hollari yuz berishi mumkin bo‘lgan egri chiziqdan iborat [5, 150 b.; 6, 371 b.; 7, 346 b., 8, 318 b.], - deya ta’kidlanadi. Ya’ni ilmiy bilish jarayonida nihiyatda murakkab va mazkur jarayonni tahlili turli konsepsiylar asosida amalga oshadi. Bilish nazariyasida skentizm yondoshuv alohida ahamiyatga ega. Shu borada I.Kant ilmiy bilish borasidagi skeptitsizmga ashaddiy qarshi bo‘lgan. Shu bilan birga u ilmiy bilishning kuch-qudrati arzimasligi to‘g‘risidagi dogmatik uydirmaga ham, fanning imkoniyatlarini ssientik baholashga ham tanqidiy ko‘z bilan qaragan. SHu nuqtai-nazardan kelib chiqqan holda fan rivojlanishi uchun u avval uning o‘zi g‘oyaviy olamdan chetlashishiga barham berishi, materiya, moddiy munosabatlar ongi belgilashi haqidagi fikridan voz kechish lozim ong va moddiylik borliqning ajralmas, bir butunligi ekanini anglab etish muhim masalalardan hisoblanadi.

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Tadqiqot usullaridan tizimlilik, analiz va sintez, umumlashtirish va komparaivistika kabi tadqiqot usullari qo‘llanildi.

- **Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Ijodkor odam o‘z navbatida fidoyi bo‘ladi. Ayni shu ma’noda, erkin A’zam “Ijod – bu o‘zini qiyash, mashaqqat chekish, huzur-halovatdan voz kechish, tom ma’noda fidoyilik demakdir” [9, 15-b.], deb yozadi. Biroq bunday fidoyilik insonga obro‘-e’tibor keltirishi yoki ba’zi hollarda qimmatga tushishi ham mumkin. Chunki uning g‘oyalari ko‘p hollarda zamonga sig‘maydi, natijada u zamon bilan kurashadi, millatni, insoniyatni yangi, o‘z zamonasidan yaxshiroq zamonga chaqirib yashaydi va baxtini shunda ko‘radi. To‘g‘ri, u ham badavlat, huzur-halovatda yashashni xohlaydi, lekin unga berilgan iste’dod uni o‘z yo‘liga soladi, inson baxti uchun, inson erki uchun kurashga chaqiradi va u murakkab shaxsga aylanadi.

Ijodkor shaxsining murakkabligi shundaki, unda bir emas, ikkita “men” yashaydi. Birinchisi, tashqaridan qaraganda ko‘zga tashlanadigan, siz bilan bizning

oramizda yuradigan, jamiyat qonun-qoidalari, milliy urf-odatlar oilaviy yoki kasbiy shart-sharoitlar mezonlari bilan, to‘liq bo‘lmasa-da, ma’lum ma’noda o‘lchanadigan va baholanadigan “men”. Ikkinchisi, hech qaysi qonun-qoidani tan olmaydigan ichki – botiniy “men”, uni yuqoridagi mezonlar bilan o‘lchab, baholab bo‘lmaydi. Birinchi men hamma odamlarga xos. Ikkinci “men” esa faqat ijodkorda mavjud bo‘ladi. U ko‘zga tashlanmagan, lekin his etilgan holda ijod falsafasining ham mohiyatini tashkil qiladi.

Ijodkordagi birinchi va ikkinchi “men”ning o‘zaro kurashida ikkinchisi doimo g‘olib chiqadi. Biroq bu kurashda jamiyat, zamon, siyosiy tuzum tomonidan aralashuv ro‘y berib, birinchi “men” g‘olib bo‘lsa, u holda vujudga kelgan g‘oya hech qachon yuksak ijod namunasiga aylanmaydi. Mazkur aralashuv, shubhasiz, ijodkorning “ixtiyori” bilan amalga oshadi. Lekin bu ixtiyor hech qachon erkin bo‘lmaydi; unda qo‘rquv, hadik, ilinj, ruju singari salbiy hissiyotlar talab darajasiga ko‘tarilib, erkinlikni ixtiyordan ajratib tashlaydi. Natijada erkinlikdan mahrum bo‘lgan ixtiyor, ya’ni majburiyat ostida yaratilgan g‘oya muallifni ham, idrok etuvchini ham qoniqtirmaydi, haqqoniylidkan yiroq, soxtalik namunasiga aylanadi.

Ijodkorda ta’til yo‘q, sayohatda ham, uyida ham baribir ishlayveradi, eng qizig‘i, bu yo‘lni u o‘zining erkin ixtiyori bilan tanlaydi, uning tarjimai holi iste’dod va mehnatdan iborat, uning mahorati iste’dod va mehnatning uyg‘unligidan vujudga keladi. Ijodkor shaxsining alohida ruhiy holati sifatidagi yana bir o‘ziga xosligi uning yolg‘izligi, u oila bilan yashaganda ham o‘zini yolg‘iz his qiladi, iloji boricha o‘zini odamlardan olib qochishga intiladi. Bunday hodisa oddiy odamlarda o‘z “men”idan yiroqlashishni, tushkunlikni, xafaqonlik holatini paydo qiladi. Ijodkor shaxs uchun esa bu ixtiyoriy hodisa, ijodning sharti hisoblanadi. U aynan mana shu yolg‘izlikda o‘zining mohiyati – ikkinchi “men”i bilan topishadi. Ayni paytda bu “men” go‘yo ijodkorning vujudidan uzilib chiqqandek, xatti-harakatlarini boshqarib turadi. Ushbu bobda “Ilmiy bilish” tushunchasining mazmuni, ilmiy bilish rivojining epistemologik xususiyatlari va fanlararo tadqiqotlarda ong haqidagi epistemologik yondashuvlarning o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Ilmiy bilish jarayonida mantiq va intuitsianing o‘zaro bog‘liqligi shubhaga joy qoldirmaydi. XX asr fanida ularning o‘zaro bog‘liqligi yanada chuqurroq tahlil qilindi va shu asosda “mantiqiy hulosalarni intuitiv asosi aniqlandi” [1, 30-b.]. Mazkur omillarni o‘zaro bog‘liqligi va bilish jarayoni asosini mazkur yondoshuv tashkil etishi bilan boshqa determinantlari ham mavjud.

X.B.Saitxodjayevning fikricha, “Ilmiy bilish jarayoni individual darajasida intuitiv va mantiqiydir, unda zaruriyat tasodifiyat bilan qo‘silib ketgan, tasodif intuitsiya mexanizmini ishga solish uchun ustuvorlik qiladi, ehtimoliy natija esa

keyingi mantiqiylik bilan to‘ldiriladi. Bilishning amaliy va ijtimoiy tabiatini uning umumiyligi ratsional xarakterini va obyektiv dunyo mantig‘i bilan mos ravishdagi qonuniy taraqqiyotini ta’minlaydi” [10, 142 b.].

R.R.Burnashev ta’kidlashicha, “Fan bilan shug‘ullanish bilish metodlari va vositalarini egallash bilan bir qatorda, ilmiy bilishga xos bo‘lgan qadriyatlar va yo‘nalishlarning muayyan tizimini o‘zlashtirishni ham nazarda tutadi” [11, 146 b.]. Mazkur yo‘nalishlar olinayotgan bilimlar bugun qanday amaliy samara berayotganidan qat’iy nazar, yangi va yangi obyektlarni o‘rganishga qaratilgan ilmiy izlanishni rag‘batlantirishi lozim. Aks holda fan o‘zining bosh vazifasi – insonning moddiy dunyonи o‘zlashtirish imkoniyatlari chegaralarini kengaytirib, o‘z davri amaliyoti moddiy tuzilmalari doirasidan chetga chiqishni amalga oshira olmaydi.

Ilmiy bilish ideallarini maxsus o‘rganish asosida R.R.Burnashev “Har qanday olim haqiqatni fanning oliy qadriyati sifatida idrok etib, haqiqatni izlashni ilmiy faoliyatning asosiy omillaridan biri sifatida qabul qiladi. Bu omil ilmiy bilishning bir qancha ideallari va me’yorlarida, chunonchi: bilimni tashkillashtirishning muayyan ideallari (masalan, nazariyaning mantiqiy izchilligi va uning sinovda o‘z tasdig‘ini topganligi), hodisalarni o‘rganilayotgan obyektlarning muhim aloqalarini aks ettiruvchi qonun va tamoyilidan kelib chiqib tushuntirishga harakat qilish va hokazolarda o‘z ifodasini topadi” [11, 146 b.], - deb yozadi. Ilmiy bilishning qadriyat va yo‘nalishlari tadqiqotlar ularning o‘zgarishini takidlaydi. Bu xolni klassik fan va zamonaviy fan qadriyatlarni taxlili ko‘rsatib beradi. Shuning uchun ham aksariyat buyuk olimlar o‘zlarining kashfiyotlari bilangina emas, balki o‘z faoliyati bilan odamlarning juda ko‘p avlodlari uchun yangilik hamda haqiqatga xizmat qilish namunasi bo‘lganligi tufayli madaniyatda sezilarli iz qoldirganlar.

Ushbu olimlar bilish jarayonining subektini ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topadi. “Ilmiy bilish faoliyatining fanga xos bo‘lgan me’yorlari va maqsadlari, shuningdek yangi obyektlarni o‘zlashtirishni ta’minlovchi o‘ziga xos vositalar va metodlarning mavjudligi mutaxassis - olimlarni izchil shakllantirishni taqozo etadi” [12, 383 b.]. Bu talab «fanning akademik tizimi» - ilmiy kadrlar tayyorlashni ta’minlovchi alohida tashkilotlar va muassasalar paydo bo‘lishiga olib keladi. Bunday tayyorgarlik jarayonida bo‘lajak tadqiqotchilar nafaqat maxsus bilimlar, ilmiy ish usullarini balki fanning asosiy qadriyatlari va omillari, uning axloqiy me’yorlari va tamoyillarini ham o‘zlashtirishlari lozim.

Shunday qilib, ilmiy bilish tabiatini aniqlashda fanning o‘ziga xos belgilari tizimini farqlash lozim, ularning orasida quyidagilar birinchi o‘rinda turadi:

- hozirgi zamon fanning ob‘eklarining murakkab tizimliliga
- murakkab tizim obyektlarni tadqiqottida yangicha yondoshuvlar falsafiy

kategoriyalarini transformatsiyalashuvi, nochiziqli tafakkurni qo'llashdan iborat.

K.J.Tulenova "Ilmiy bilish va bashoratchilikning shakl va uslublari tizimida matematik vosita va uslublar muhim o'rin egallagan. Ular ilmiy bilishda, gipotezalarni taqdim etishda mantiqiy tizimlashgan malumotlar miqdorining vositasi sifatida ishlatiladi yoki ular shu o'rinda tadqiq etilayotgan obyektlarda miqdoriy qarama-qarshilik tusini beruvchi izlanish vositasidir" [13, 24-b.], - deya ta'kidlaydi.

Ilmiy bilishning eng xarakterli jihatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Tizimlilik. Kant o'z davrida ilmiy bilishning tizimliligi uning doimiy jihatini ekanini qayd qilgan edi: u o'zining «Mantiq» asarida fan aynan tizimliligi tufayli «oddiy agregat» [1, 379 b.] bo'lgan kundalik hayotiy bilimdan farq qilishini ko'rsatgan edi. Kant o'zining «Sof aqlni tanqid» asarida shunday yozgan edi: «...Kundalik hayotiy bilim tizimli birlikka erishgandagina, ya'ni oddiy bilimlar aggregatidan tizimga aylangandagina fan bo'ladi» [14, 486 b.].

2. Ilmiy natijani eksperimentni takrorlash imkoniyati. Bu xususiyat ilmni hosil qilish uchun zarur sharoitlarda ko'p marta qaytarish mumkinligidir.

3. Umumlashtirishlar va oldindan bashorat qilish uchun qulayligi. Ilmiy bilish shunday tashkillashganki, uni o'zi olingan soha chegaralaridan kengroq qamrovlarga qo'llash mumkin. Bu erda «oldindan bashorat» qilishni faqat vaqtga nisbiy ma'noda emas, kengroq, ya'ni bu bilim olingan soha chegarasidan chiqish ma'nosida tushunmoq kerak.

4. Ilmiy bilishning muammoviylik shaklda ekanligi shuki, bu bilimda biror muammoning hal qilishidan ikkinchi muammoni keltirib chiqaradi, ya'ni navbatdagi muammo echilishi bilan bu fan sohasidagi muammolarning umumiyligi miqdori kamaymaydi, aksincha, ortadi.

5. Tanqidiylik. Ilmiy da'volar, nazariyalar vaqt vaqt bilan, yangi dalillar paydo bo'lganida va yangi nazariyalar yaratilganda qayta ko'rib chiqiladi.

6. Amaliyotga yo'nalganlik. Ilmiy bilish qay shaklda bo'lmasin, jamiyatning amaliy ehtiyojlariga yo'llangan bo'ladi. Aynan amaliyot ilmiy bilishning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi, ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi, tadqiqotlarning «buyurtma jild»larini to'ldirib turadi.

Keltirilgan xususiyatlar orasida ilmiy bilishdagi haqiqatlilik xossasini alohida tadqiq etilmadi, balki odatda bilimning haqiqatlik xossasi da'volar, umumlashtirishlar yoki ilmiy nazariyaning tajribada tekshirishda namoyon bo'ladi. Fanda haqiqiy bilim to'g'risida uni tajribada sinab ko'rgandan so'nggina gapirish mumkin. Holbuki, haqiqat nima deganini tushuntirib berish nafaqat falsafaning, balki ilohiyot ilmi, badiiy bilimning ham asosiy mavzularidan biri hisoblanadi.

Ilmiy bilish darajalari esa quyidagilar bilan izohlanadi:

- fan metodologiyasida ilmiy bilishning ikki darajasi – empirik va nazariy darajalari farq qilinadi. Buni yana empirik va nazariy tadqiqotlar ham deyish mumkin.

- ilmiy bilishning empirik darajasi kuzatish, eksperiment, o‘lchash, guruhlarga ajratish, sinflarga bo‘lish, ilmiy tasnifga doir amallarni o‘z ichiga oladi.

- ilmiy bilishning nazariy darajasida gipotezalarni ilgari surish, ilmiy nazariyani yaratish, qonunlarni ta’riflash, bir gipoteza va nazariyani boshqalari bilan taqqoslash, shuningdek, umumlashtirish, tushuntirish va oldindan aytish amallari bajariladi.

Eksperiment esa bu ilmiy bilish darajasida inson amaliy faoliyatining bir shaklidir. Bu esa obyektga predmet sezgirli ta’sir qilish yo‘li bilan uning namoyon bo‘lishi sharoitini o‘zgartirish va nazariyaning to‘g‘riligini tekshirishdan iborat [16, 27-b.]. “Eksperimentning xayoliy uslubi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda keng foydalaniladi. U matematika, fizika, astronomiya, kosmologiya, geologiya, ximiya, biologiya, texnik va ijtimoiy fanlarda foydalaniladi va asosan umum fan uslublarini bilish maqomiga ega bo‘lib qolgan. Lekin falsafiy metodologik jixatdan hayoliy eksperiment uslubi ham munozarali va etarli tasdiq topmagan” [17, 273-b.].

Ma’lumki, empirik bilish subyektning hissiy qobiliyatlari bilan chambarchas bog‘langan bo‘ladi. Biroq tajribaning vosita va shakllari xissiy qabul qilishga nisbatan muayyanmust oqimlikka ega bo‘ladi. Ilmiy bilish metodologiyasida empirik va nazariy bilish darajalarining o‘xshashligi masalasiga emas, ularning farqlari, o‘ziga xosliklariga e’tibor berish muhimdir. Ushbu mavzuga oid adabiyotlar G.K.Masharipova tadqiqotlarida ham o‘rganilgan [18, 169-174-bb.; 19, 43-50-bb.; 20, 242-247-bb.; 21, 364 b.; 22, 144 b.; 23, 2190 b.].

- XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS).

Muammoli vaziyatning pirovard negizi amaliyot hisoblanadi. Bizning obyekt haqidagi bilimlarimiz etarli emasligi ayon bo‘lib, «salbiy» natijalar olinadi, amaliyot yangi muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Bunda fan nisbatan mustaqillikka, o‘z rivojlanishining ichki mantig‘iga, o‘z ichki qarama-qarshiliklariga ega ekanligi, bu omillar ham muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirishini unutmaslik lozim. Bunday holatga fanning ko‘pgina sohalari: matematika, nazariy fizika va boshqalarda duch kelish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кузнецов Б.Г. Идеалы современной науки. – Москва, 1983. - С.31
2. Гаман И.Г., Якоби Ф.Г. Философия чувства и веры. Сост. вступ.ст. , Пер.с нем.: С.В.Волжина. – СПб.: Санкт-Петербург 2006. 487 с.
3. Селигман М. Новая позитивная психология: Научный взгляд на счастье и смысл жизни. Пер. с англ. – Москва: София, 2006. - 368 с.

4. Шаховский В.И. Лингвистическая теория эмоций: Монография. – Москва: Гнозис. 2008. - 416 с.
5. Свергузов А.Т. Рефлексия в структуре механизмов научного познания: Дис. ... канд. филос. наук. - Ульяновск, 1996. - 150 с.
6. Витченко Н.Н. Социально-этические и гуманистические основания научного познания: Дис. ... д-ра филос. наук. - Томск, 2005. - 371 с.
7. Полозова И.В. Метафора как средство философского и научного познания : Дис. ... д-ра филос. наук. Москва, 2003. - 346 с.
8. Алиев Н.И. Гносеологические аспекты обоснования в научном познании: Дис. ... д-ра филос. наук. - Санкт-Петербург, 2002. - 318 с.
9. Erkin A'zam. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor // Tafakkur jurnalı, 2009. № 3. VII.
10. Сайтходжаев Х.Б. Идея в структуре научного познания: Дис. ... канд. фил. наук; ТГПИ им. Низами; №04.94.0001335. - Ташкент, 1994. - 142 с.
11. Бурнашев Р.Р. Методологические проблемы изменения идеалов и норм научного познания: Дис. ... канд. филос. наук; Ин-т философии и права им. И.М. Муминова. - Ташкент, 1997. - 146 с.
12. Алексеев П.В, А.В. Панин. Теория познания и диалектика. – Москва: Высшая школа, 1991. – 383 с.
13. Туленова. К. Ж. Научное предведение как философская проблема и ее методологическое значение для практики в условиях независимого Узбекистана. Афтореф. Дис... д-ра философ. Наук. - Ташкент, 2001. - С. 24
14. Кант И. Логика. Трактаты и письма. - Москва, 1980. - 379 б.
15. Кант И. Критика чистого разума. - Москва, 1994. - 486 б.
16. Толибов М. Табиий фанлар ва фалсафа. Т. Фан. 2006. - Б.27.
17. Каримов Б.Р. Диалектика объективного и субъективного в методе восхождения от абстрактного к конкретному. Дисс...д-ра филос. наук: Ташкент, 1990.- С.273.
18. Masharipova G.K. Education Of Youth Of New Uzbekistan By Studying The Heritage Of Thinkers. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915. Vol. 11, Issue 12, December (2023). - Pp. 169-174
19. Masharipova G.K. The Problem Of Education Of Youth Of New Uzbekistan By Teaching The Heritage Of Scientists Of The Khorezm Academy Of Mamun. Intent Research Scientific Journal-(IRSJ) ISSN (E): 2980-4612 Volume 2, Issue 11, November-2023 Website: intentresearch.org/index.php/irsj/index - pp. 43-50.
20. Masharipova G.K. Main Research Areas Of Scientists Of The Khorazm Academy Of Ma'muna American Journal of Advanced Scientific Research (AJASR)

ISSN: 2195-1381 Vol. 1 Issue 8, December – 2024, Pages: 242-247.
<http://ijarer.org/index.php/ij/issue/view/4>.

21. Masharipova G.K. Xorazm Ma'mun Akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy merosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri. Monografiya. – Toshkent, Navro'z nashriyoti, 2019. - 364 b.
22. Masharipova G.K. Abu Ali ibn Sino ilmiy-falsafiy va ma'naviy merosining jamiyat hayotidagi o'rni. Monografiya. – Toshkent, Navro'z nashriyoti, 2020. – 144 b.
23. Masharipova G.K. O'rta asrning buyuk kashfiyotlari - xorazmlik matematiklarining ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissalari. Monografiya. – Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2021. – 210 b.